



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

KOMRON MIRZO DEVONIDA QO‘LLANGAN FORSCHA SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Turatova Mashxura Toxirjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Komron Mirzo devonida qo‘llangan forscha leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari ilmiy tahlil qilindi. Shuningdek, fors-tojikcha so‘zlarning o‘zbek tili taraqqiyotida tutgan o‘rni, bu ikki tilning tarixiy-grammatik rivojlanishdagi o‘zaro aloqalari haqidagi mulohazalar ham bayon etildi. Ushbu taqdiqotning asosiy maqsadi devon matnida uchraydigan eroniy leksikaga mansub birliklarni aniqlash, ularning leksik xususiyatlarini va ma’no nozikliklarini aniqlashdan iborat. Maqolada eroniy leksikaga oid so‘zlar mavzuiy-semantik guruhlariga bo‘linib, lingvistik jihatdan ilmiy tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: fors-tojik tili, jahon, nochor, bemor, chehra, jon.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРСИДСКИХ СЛОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ДИВАНЕ КОМРОНА МИРЗО

Туратова Махшура Тохиржон кизи

Джизакский государственный педагогический университет, магистрант

Аннотация

В статье проводится научный анализ лексико-семантических особенностей персидских лексических единиц, использованных в диване Комрона Мирзо. Рассматривается роль персидско-таджикской лексики в развитии узбекского языка, а также взаимосвязь этих языков в историко-грамматическом аспекте. Основная цель исследования — выявить единицы иранского происхождения в тексте дивана, определить их лексические особенности и смысловые оттенки. Персидская лексика классифицируется по тематико-семантическим группам и анализируется с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: персидско-таджикский язык, мир, бедственный, больной, лицо, душа.

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PERSIAN WORDS USED IN THE DIVAN OF KOMRON MIRZO

Turatova Mashkhura Tokhirjon qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Master’s Student

Abstract

This article presents a scientific analysis of the lexical-semantic features of Persian lexical units used in the Divan of Komron Mirzo. It also discusses the role of Persian-Tajik vocabulary in the development of the Uzbek language and examines the historical and grammatical interactions between these languages. The main aim of the study is to identify Iranian-origin lexical units in the text and analyze their lexical properties and semantic nuances. The Persian-derived vocabulary is classified into thematic-semantic groups and examined from a linguistic perspective.

Keywords: Persian-Tajik language, world, helpless, sick, face, soul.

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti jarayonida fors-tojik tili bilan uzviy aloqada rivojlangan. Ushbu aloqa Markaziy Osiyo hududida uzoq vaqt davomida shakllangan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. turkiy urug‘ va qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi va qo‘shilishi;
2. o‘zbek tilining forsiy til bilan aloqasi (IX–X, XI–XV asrlar);
3. o‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan hozirgacha) [6, 23-b.].

Forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan: a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir yoki qo‘shni hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; v) tojik va fors tillarida ijod qilish an’alarining uzoq yillar davom etganligi; g) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi; d) adabiyot, san’at, madaniyat va urf-odatdagi mushtaraklik [3, 55-b.].

Ma’lumki, IX asr oxiriga kelib O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi susaya boshladi. Ana shu davrda poytaxti Buxoro bo‘lgan Somoniylar davlati barpo bo‘ldi. Ismoil Ahmad Somoniy (847–907) va uning avlodlari hukmronligi davrida (999–yilgacha) dariy tili, ya’ni fors-tojik adabiy tili davlat tili va adabiy til sifatida yuqori mavqe kasb etdi. Hatto turkiy qabilalardan bo‘lgan G‘aznaviylar va Saljuqiylar ham davlat tili va adabiy til sifatida dariy tilini qabul qildilar. Bu davrda fors-tojik adabiyoti ravnaq topib, dariy tili she’riyat tiliga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, Movarounnahr va Afg‘onistonda, Ozarbayjon hamda Hindistonning shimoliy hududlarida fors-tojik adabiy tili an’anasining keng yoyilishiga sabab bo‘ldi [1, 215-b.].

Forsiy adabiy til dastlab arab tilini she’riyat sohasidan siqib chiqardi. Forsiy til fan, adabiyot va madaniyat tiliga, shuningdek, rasmiy davlat tiliga aylandi. Bu tilda mashhur adiblar Abu Abdulloh Rudakiyning she’rlari, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni, Umar Hayyomning bebaho ruboiylari, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” kabi asarlari, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviyning g‘azal hamda dostonlari, Shamsiddin Muhammad Hofiz va Abdurahmon Jomiyning o‘lmas asarlari yozildi [2, 96-b.]. Demak, turkiy til va fors-tojik tillari qadimdan o‘zaro aloqada bo‘lgan. Buning natijasi o‘laroq zullisonayn, ya’ni ikki tilda ijod qiluvchi ijodkorlar yetishib chiqqan. Komron Mirzo ham ana shunday iste’dod egalari sirasiga kirib, turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Shu bois uning devonining juda ko‘p o‘rinlarida eroniy tilda yozilgan g‘azal, ruboiy va qit’a janrlariga oid namunalarni uchratish mumkin. Xususan, devonda qo‘llangan fors-tojikcha so‘zlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflab, leksik tahlil qilish mumkin: o‘rin-joy tushunchasini ifoda etuvchi so‘zlar, odam tanasi bilan aloqador so‘zlar, belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlar, mavhum tushunchani ifoda etuvchi so‘zlar hamda kishilar o‘rtasidagi yaqinlikni ifodalovchi so‘zlar.

1. O‘rin-joy tushunchasini ifoda etuvchi so‘zlar: chaman, jahon

Chamanda qayon sarvi nozeki ko‘rsam,

Sog‘inib o‘shal qaddi raftor yig‘lay. [28]

“Chamanda sayr chog‘ida sarvdek nozik qomatni ko‘rganimda, o‘sha go‘zal qaddi-qomatni sog‘inib yig‘layman”, deya oshiq iztirobi ifodalanadi. **Chaman** so‘zi izohli lug‘atda quyidagi ma’nolarni anglatadi: *chaman I* [f. – o‘tloq; gulzor; sayilgoh] — gul ko‘p joy; gulzor, chamanzor, gulshan; *chaman II* — har qancha qamchilasa ham yurmaydigan ot [10, 718-b.].

Jahonda yaxshi-yomon har nekim boshingga kelur,

Chu yaxshi boqsang, erur xo‘bu zisht kirdoring. [23]

Ushbu baytda jahonda boshingga qanday yaxshilik va yomonlik kelsa ham, diqqat bilan o‘zingga boq, qilgan barcha yaxshi-yomon amallaring ayon bo‘ladi, degan mazmun ifodalangan. **Jahon** so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha berilgan: *jahon* [f. – dunyo, olam] 1) yer yuzi va undagi

butun borliq; dunyo, olam; 2) poetik ma'noda — dunyodagi barcha xalqlar, butun insoniyat; 3) Jahon — xotin-qizlar ismi [8, 615-b.].

2. Odam tanasi bilan aloqador tushunchalar: chehra, zulf, jon

*Bebargu navo aylagoning bulbuldek,
Yafrog' kibi chehramni xazon aylabtur.* [35b]

Sening bulbul singari navo qilishing mening yuzimni yaproqdek xazonga aylantirdi, degan mazmun ifodalangan. Baytda kelgan **chehra** so'zi lug'atlarda quyidagicha izohlanadi: *chehra* [f. – yuz, siymo] 1) yuz, bet, aft-angor; siymo; 2) ko'chma ma'noda — kishi kayfiyati, ruhiy holati yoki xulq-atvorining yuzdagi aksi [10, 759-b.]; *chehra* — bet, yuz, bashara, aft [4, 679-b.].

*Zulfu yuzini ko'ray deb tunu kun,
Vahki, har lahza qarorim yo'qtur.* [19b]

Mazkur baytda yorning sochi va yuzini ko'rish uchun tun-u kun halovati yo'q oshiq timsoli gavdalanirtilgan. **Zulf** so'zi izohli lug'atda quyidagicha izohlanadi: *zulf* [f. – jingalak soch; gajak] 1) ayollarning ikki chakkasida, quloqlari atrofida jingalak holda osilib tushgan jamalak; 2) umuman, qizlarning sochi, kokili [10, 389-b.].

*Sendin ayru tushkali ko'nglum asiri g'amdurur,
Jonima hijron g'amidin yuz tuman motamdurur.* [19]

Sendan ayrilganimdan beri ko'nglim g'amga asir, jonim esa hijron g'amidan yuz ming motamga botgan, degan mazmun ifodalangan. **Jon** so'zi izohli lug'atda quyidagicha beriladi: *jon* [f. – ruh; hayot; kuch-quvvat] — ruh, tiriklik, sezuvchi badan, hayot, kuch-quvvat, sevikli kishi, hayot manbai va boshqa ma'nolarni anglatadi [8, 675-b.].

3. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar: bemor, parishon, nochor, devona, xo'b

*Bemormenu bor ko'zi yodi ko'ngil ichra,
Bemorg'a ul navki bemor musohib.* [12]

Ushbu baytda oshiqning bemorligi va bunday holatda uning dardini faqat o'zi kabi ishq yo'lida bemor bo'lganlarga tushunishi ifodalanadi. **Bemor** so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha beriladi: [f. – kasal] 1) organizmining odatdagi biror holati buzilgan; kasal, xasta; 2) ko'chma ma'noda — sevgi-muhabbat dardi, oshiqlik holati; 3) ko'chma ma'noda — nimjon, o'sishdan qolgan [7, 398-b.].

*Eykim, yuzunga volavu hayrondurmen,
Zulfig g'amidin asru parishondurmen.* [38]

Bu baytda yorning yuz go'zalligiga lol-u hayron bo'lgan, sochi g'amidan esa parishon holga tushgan oshiq tasvirlanadi. **Parishon** so'zi lug'atlarda quyidagicha izohlanadi: tojikcha *pareshon* shaklidan o'zlashib, "tarqoq" ma'nosini anglatadi [5, 184-b.]; izohli lug'atda esa [f. – sochilgan, to'kilgan; tartibsiz; xayoli qochgan] 1) har tomonga sochilgan, to'zg'igan, tartibsiz; 2) ko'chma ma'noda — diqqati bo'lingan, tarqoq [9, 654-b.].

*Har necha qochay deb qilibon qasd qutulmay,
Bo'ldum g'amu mehnat bila nochor musohib.* [14]

Ushbu baytda har qancha urinmasin, ishq savdosidan qutula olmay, g'am va mehnat bilan yo'ldosh bo'lib qolgan oshiq haqida so'z boradi. **Nochor** so'zi lug'atlarda quyidagicha beriladi: tojik tilida *no-* inkor old qo'shimchasi va *chora* otidan yasilib, "chorasiz, noiloj" ma'nosini anglatadi [5, 163-b.]; izohli lug'atda esa [f. – majburiy, noiloj; chorasiz; ojiz, notavon] tarzida izohlangan [9, 415-b.].

*Ko'rgach seni ishqingdin afsona bo'lubturmen,
Ko'rmay seni hajringdin devona bo'lubturmen.* [26b]

"Seni ko'rgach ishqing tufayli afsona bo'ldim, seni ko'rmay esa hajring sabab devona bo'ldim", degan mazmun ifodalangan. **Devona** so'zi lug'atlarda: [f. – telba, aqlsiz] 1) aqldan ozgan, telba; 2) tasavvufiy ma'noda — zikrga berilgan darveshsifat odam; 3) ko'chma ma'noda — biror maqsadga tamoman berilgan; 4) tilanchi; 5) hazil yoki erkalash ma'nosida ishlatiladi [7,

836-b.]; [4, 188-b.].

*Xo‘b erdi manga bo‘lsa erdi yor musohib,
Yo bo‘lmasa erdi anga ag‘yor musohib.* [14]

Mazkur baytda “Yor menga hamroh bo‘lsa juda yaxshi edi, yoki hech bo‘lmaganda unga ag‘yor yo‘ldosh bo‘lmasa edi”, degan mazmun ifodalanadi. **Xo‘b** so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha berilgan: [f. – chiroyli, yaxshi; sifatli; mos, yaroqli] 1) yaxshi; 2) chiroyli, go‘zal kishi [10, 108-b.].

4. Mavhum tushunchani ifoda etuvchi so‘zlar: mehr, dard

*Yo rabki, o‘shal oyni manga mahram qil,
Yo mehrin aning xasta ko‘nguldin kam qil.* [37]

Ushbu baytda oshiqning “O‘sha oy yuzli go‘zalni menga mahram qil yoki yarador ko‘nglimdagi unga bo‘lgan mehrni kamaytir”, deya Yaratganga iltijo qilishi aks etgan. **Mehr** so‘zi lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: *mehr I* [f. – sevgi, muhabbat; moyillik] 1) insonning yaqin kishilariga yoki umuman odam va narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; 2) shafqat, rahmdillik; *mehr II* [f. – quyosh] — oftob [9, 172-b.]. Etimologik jihatdan bu so‘z “yurakka yaqin tutish”, “suyib munosabatda bo‘lish” ma‘nolarini bildiradi [5, 137-b.].

*Naylab sanga dardimni ayon qilg‘umdur,
Ne til bila holimni bayon qilg‘umdur.* [36b]

Ushbu baytda oshiq o‘z dardini va holatini yoriga qay yo‘l bilan bayon qilishni bilmay, o‘yga toladi. **Dard** so‘zi etimologik lug‘atda “og‘riq”, “kasallik”, “qayg‘u” kabi ma‘nolarni anglatishi qayd etiladi [5, 78-b.]. Izohli lug‘atda esa [f. – kasallik; ozor, alam; ruhiy azob] 1) jismoniy og‘riq, kasallik; 2) ruhiy azob, g‘am-g‘ussa; 3) kishining butun fikr-u yodini band etgan narsa; 4) orzu, armon; 5) ishq, muhabbat ma‘nolarida qo‘llanishi ko‘rsatilgan [7, 768-b.].

5. Kishilar o‘rtasidagi yaqinlikni ifoda etuvchi so‘zlar: yor, hamdam

*Sensizin sabr-u qarorim yo‘qtur,
Sendin o‘zga yorim yo‘qtur.* [19b]

Ushbu baytda oshiqning ayriliqqa sabri yo‘qligi, o‘sha xayolini o‘g‘irlagan dildordan boshqa yori yo‘qligi ifodalanadi. **Yor** so‘zi quyidagicha izohlanadi: [f. – do‘st] 1) dilga yaqin kishi; hamdam, do‘st, muhib, yordamchi; 2) sevgili, ma‘shuq, ma‘shuqa [10, 231-b.].

*Yo meni aning furqatidin beg‘am qil,
Yo oni manga hamnafas-u hamdam qil.* [37b]

Mazkur baytda oshiq Allohga murojaat qilib, yordan ayriliqni oson qilishni yoki uni visolga yetishtirishni so‘raydi. **Hamdam** so‘zi lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: tojik tilida *ham-* old qo‘shimchasi va *dam* otidan yasalib, “ko‘pincha birga bo‘ladigan”, “yaqin” ma‘nolarini anglatadi [5, 276-b.]. Izohli lug‘atda esa [f. – samimiy, yaqin o‘rtoq, do‘st] 1) biror kimsa bilan ko‘pincha birga bo‘luvchi shaxs yoki narsa; 2) Hamdam — erkaklar ismi [8, 305-b.].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Komron Mirzo devonidagi fors-tojikcha so‘zlarni leksik tahlil qilish hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, forscha leksik birliklar asarning badiiy xususiyatlarini kengaytirib, muallif uslubining o‘ziga xos jihatlarini ochib bergan. Demak, devonda qo‘llangan forscha so‘zlar tadqiqi turkiy va eroniy tillar o‘rtasidagi o‘zaro tarixiy-madaniy aloqalarning lingvistik dalillarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi: darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 332 b.
2. Ҳоҗиев А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
3. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. – 55 б.
4. Навоий асарлари луғати: Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III том. – Тошкент: Университет,

2003.

6. Saidov Yo. O‘zbek adabiy tili tarixi: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy Durdona nashriyoti, 2019. – 168 b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli. 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.